

**O‘zbekiston**  
**Metama'lumot**  
**Kadrlarning sifat tarkibi va kasbiy ta'lim ko'rsatkichlari**

Ishlab chiqilgan sana: 23.09.2021

Oxirgi yangilangan sana: 23.09.2021

## 0. Asoslar

### 0.1 Qonuniy asoslar

#### 0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o'rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2017-yil 2-sentabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida [Nizom](#)”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas'ul, shuningdek ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubiyati bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma'lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o'tkazish va olingan birlamchi ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo'lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag'batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni so'rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy

statistika tizimiga joriy etish;

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

2017-yil 12-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

### **0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish**

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

### **0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi**

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu

jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizomda, Davlat statistika qo'mitasi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish huquqiga ega ekanligi hamda olingan statistik ma'lumotlarning maxfiylikini va davlat sirlariga ega bo'lgan statistik ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

#### **0.1.4 Statistika hisobotlarni taqdim etish**

##### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

## **0.2 Resurslar**

### **0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish**

Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasida 16 nafar hodim ishlaydi. Boshqarma 3 ta bo'limdan iborat.

Markaziy apparatda indikatorni shakllantirish 2 ta xodim va har biri 1 tadan - hududiy statistika boshqarmalarining tegishli statistika bo'limlarida amalga oshiriladi.

Barcha xodimlar iqtisodiy sohada oliy ma'lumotga ega va kamida 2 yilda bir marta O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida malaka oshiradilar.

Har bir ish joyi shaxsiy kompyuter bilan ta'minlangan, dasturiy ta'minot muntazam yangilanib turadi.

Taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar statistika dasturida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun yetarli.

## 1. Beg‘arazlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg‘arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo‘limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo‘lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo‘ysunadi.

Mazkur statistik ma‘lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo‘l qo‘yilmagan va kasbiy mustaqillik to‘liq ta‘minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e‘tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslari, o‘quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o‘quv kurslarida ma‘ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e‘lon qilib borish tashkil etilgan.

#### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta‘minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma‘lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni birlashtirish, ma‘lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog‘lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma‘lumotlar to‘plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma‘lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma‘lumotlarining sifati to‘g‘risida metama‘lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

### 1.1.3 Statistika ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda (15-band) Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

## 1.2 Shaffoflik

### 1.2.1 Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlik va shaffoflik. Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistika qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Qo'mita rasmiy veb-saytiga ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.lex.uz](http://www.lex.uz) manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistika ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Qo'mita rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

### 1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Hukumat Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi ("Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo'mita raisi, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

### 1.2.3 Statistika ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

## 1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo'mitasi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

## 1.3. Axloq me'yorlari

### 1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Uslubiyat

### 2.1 Konsepsiya va tushunchalar

#### 2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Kadrlar va kasb-hunar ta'limining sifatli tarkibi haqidagi tushuncha va ta'riflar xalqaro standartlar va MDH davlatlari tajribasiga asoslangan.

Xodimlarning sifatli tarkibi ma'lum bir sanaga (yil oxiri) belgilanadi. Haqiqatda ishlayotganlar ham, vaqtincha ishda bo'lmaganlar ham hisobga olinadi.

Xodimlarning sifat tarkibi xodimlar toifalariga ko'ra tasniflanadi.

Boshqaruv xodimlari-ma'muriy funksiyalarni amalga oshiruvchi xodimlar, xodimlarni boshqarish, zarur qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish, tashkilot faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va tartibga solish, tegishli qarorlar qabul qilish uchun axborotni tayyorlash, boshqaruv xodimlarining rahbarlari va mutaxassislariga bo'linadi.

Texnik xodimlar-boshqaruv xodimlari faoliyatining ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarini (bosma, ko'paytiruvchi va arxiv ishlarini bajarish, kutubxona ishi, hujjatlarni yetkazib berish, kompyuter texnikasiga xizmat ko'rsatish, kanselyariya, kotibiyat va boshqa ishlarni bajarish) texnik xizmat ko'rsatish va ta'minlash ishlarini o'z ichiga olgan xodimlar.

Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar-vazifalari binolar va hududlarga texnik va iqtisodiy xizmat ko'rsatish, ularni muhofaza qilish, boshqaruv xodimlariga transport xizmati ko'rsatish, shuningdek tashkilotning boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlariga, shu jumladan ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatishga xizmat ko'rsatish bo'yicha boshqa ishlarni o'z ichiga olgan xodimlar.

Ishlab chiqarish xodimlari-ishlab chiqarish dasturida belgilangan asosiy mahsulotlar (xizmatlar), shuningdek, tegishli mahsulotlar (xizmatlar) ni ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok

etuvchi tashkilot, korxonada xodimlari.

Xodimlarning sifatli tarkibi ham yoshi bilan ajralib turadi. Yil oxiridagi xodimlar soni yosh guruhlariga bo'yicha hisobot yilining oxiridagi yoshlarga qarab taqsimlanadi.

Korxonada (tashkilot) ning barcha xodimlarining o'rtacha yoshi har bir yosh guruhidagi o'rtacha yoshdagi tarkibni ushbu guruhdagi xodimlar soniga yig'ish va natijada olingan miqdorni ishchilarning umumiy soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Ishchi kuchlarining ta'lim tarkibi yil oxirida xodimlar sonining olingan ma'lumot darajasiga qarab taqsimlanishi bilan tavsiflanadi.

Kasb - hunar ta'limi to'g'risidagi ma'lumotlar yil oxirida ma'lum bir korxonada (tashkilotda) mehnat daftarchasi bo'lgan, yil davomida malaka oshirish, qayta tayyorlash, amaliyot o'tash yoki kasbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv dasturlarini o'rgangan xodimlar, shu jumladan ayollar va yoshlar tarkibi bo'yicha beriladi.

Kompyuter ta'limi kurslari, chet tillari va boshqalarda o'z mablag'lari hisobidan o'qitilgan xodimlar; hisobot yilida oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoki tugatgan xodimlar; tashkilotlarda ta'lim dasturlari (ma'ruzalar, seminarlar, brifinglar, treninglar va boshqalar) o'tish to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilmaydi.

## **2.2 Statistika qamrov**

### **2.2.1 Statistika qamrov**

#### **2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistika qamrovi**

Ma'lumotlarning geografik qamroviga Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri, shuningdek, shahar va tumanlar kiradi;

iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qamrab olish;

kasbiy qamrov: barcha kasblar;

tematik qamrov: yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari xodimlari soni, viloyatlar, jinslar, shahar va qishloqlar bo'yicha.

#### **2.2.1.2 Statistika qamrovdan istisnolar**

Hech qanday istisnolar yo'q.

#### **2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat**

Yuridik shaxslarda yollanib ishlovchilardan tashqari boshqa shaxslar hisobga olinmaydi.

## **2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash**

### **2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash**

O'zbekiston Respublikasi hududlari, tumanlar va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi.

Faoliyat turlari bo'yicha taqsimot Evropa Ittifoqi doirasidagi iqtisodiy faoliyat tasnifiga (NACE-rev.2) teng keladigan O'zbekiston Respublikasi Umum davlat iqtisodiy faoliyat tasniflagichiga (IFUT 2-taxrir) muvofiq amalga oshiriladi.

Asosiy hisob birligi - institutsional birlik

## 2.4 Hisobga olish asoslari

### 2.4.1 Baholash

Kadrlarning sifat tarkibi kadrlar toifasi, yoshi, ma'lumot darajasi bilan tavsiflanadi.

Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi ma'lumotlar yil davomida malaka oshirish, qayta tayyorlash, stajirovka yoki kasb-hunar ta'limi bo'yicha o'quv dasturlarini o'rganan xodimlar to'g'risida ma'lumot beriladi.

### 2.4.2 Hisobga olish asosi

Ma'lumotlar davlat statistika organlariga yillik davriyligi bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisobotlari asosida tuziladi.

### 2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kadrlarning sifat tarkibi va kasb-hunarga o'qitish ko'rsatkichlari yiliga bir marta aniqlanadi.

## 3. Aniqlilik va ishonchlik

### 3.1 Birlamchi ma'lumotlar

#### 3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

1-mehnat shakli (yillik) , 1-ntt shakli, 1-kb shakli, 1-fx shakli, 1-kom (kvartira) shakli: yuridik shaxslar kadrlarining sifat tarkibi bo'yicha ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun axborot bazasi statistik hisobot shakllarining asosiy ma'lumotlari hisoblanadi.

1-mehnat shakliga (yillik) xodimlarni kasbiy o'qitish bo'yicha ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

#### 3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Kadrlarning sifat tarkibi xodimlarning toifalarini, jinsi va yoshi bo'yicha o'sish darajasini, ta'lim darajasini o'z ichiga oladi va hisobot yilining oxiriga to'g'ri keladi.

Kasbiy tayyorgarlik malaka oshirish, qayta tayyorlash, amaliyot yoki kasbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv dasturlarini o'rganishni o'z ichiga oladi, ko'rsatkichlar hisobot yili uchun aks ettiriladi.

Statistik qamrov-ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini, shuningdek, shahar va tumanlarni o'z ichiga oladi.

#### 3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Ma'lumot yig'ish dasturi statistika dasturi bilan tartibga solinadi.

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, har yili respublika va mintaqalar bo'yicha statistika dasturida belgilangan muddatlarda ma'lumotlar ishlab chiqariladi.

Ma'lumotlar har yili may oyida tayyorlanadi.



## **3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash**

### **3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash**

Olingan dastlabki ma'lumotlar qamrovning to'liqligi bo'yicha tahlil qilinadi, hududiy statistika boshqarmalarida va Davlat statistika qo'mitasida majburiy nazorat va sinovdan o'tkaziladi. Agar xatolar aniqlansa, ma'lumotlar aniqlanishi va tuzatilishi kerak.

## **3.3 Statistik usullar**

### **3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar**

Qo'llaniladigan statistik usullar qayta ishlashdagi xatolarni kamaytirishga imkon beradigan statistik tartib-qoidalarga asoslanadi.

Ma'lumotlarni tuzish proseduralari ma'lumotlarni kodlash va tahrirlashda va jadvallarni tuzishda xatolar kabi ma'lumotlarni qayta ishlashda xatolarni kamaytirishga imkon beradi.

### **3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar**

Yo'q.

## **3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash**

### **3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash**

Asosiy dastlabki ma'lumotlardagi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklar tahlil qilinadi va ma'lumotlar farqlarni bartaraf etish uchun tuzatiladi.

### **3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash**

Vaqtinchalik va ishlab chiqarish statistikasi muntazam baholanadi va solishtiriladi. Agar nomuvofiqliklar aniqlansa, ularni bartaraf etish choralari ko'riladi.

### **3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish**

Agar dastlabki e'lon qilingan ma'lumotlar tafovutlari aniqlangan bo'lsa, keyingi nashrlarda o'zgarishlar kiritiladi.

## **3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili**

### **3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish**

Statistik natijalardagi muammolarning statistik tafovutlari va boshqa potensial ko'rsatkichlari o'rganiladi.

Xulosa ma'lumotlari oldingi davr bilan taqqoslanadi.

Agar dastlabki e'lon qilingan ma'lumotlar tafovutlari aniqlangan bo'lsa, keyingi nashrlarda o'zgarishlar kiritiladi.

## 4. Amaliy yaroqlilik

### 4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

#### 4.1.1 Davriylik

Davriylik umumiy qabul qilingan ma'lumotlar tarqatish standartlariga javob beradi. Kadrlar tarkibi va kasb-hunar ta'limi bo'yicha ko'rsatkichlarni shakllantirish hisobot yilidan keyin har yili amalga oshiriladi.

#### 4.1.2 O'z vaqtidaligi

Statistika dasturi asosida kadrlar tarkibi va kasb-hunar ta'limi bo'yicha statistik ma'lumotlarni ishlab chiqarish har yili amalga oshiriladi. Yillik ma'lumotlar kelgusi yilning may oyida hisobot uchun taqdim etiladi.

### 4.2 Qiyosiylik

#### 4.2.1 Ichki qiyosiylik

Statistik ma'lumotlar bir biri bilan bog'liq. O'z vaqtida taqqoslanadi.

#### 4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Ma'lumotlarning taqqoslanadigan ketma-ketligi yetarli vaqt oralig'ida mavjud. Kadrlar va kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining dinamikasi 2006- yildan shakllangan. 2016- yilgacha ma'lumotlar XXTUT milliy klassifikatori bo'yicha, 2016- yildan boshlab iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2) bo'yicha shakllantiriladi.

#### 4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Yo'q.

### 4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

#### 4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Yakuniy ma'lumotlarni shakllantirish muddatlari statistika dasturida belgilanadi. Statistika dasturi Qo'mitaning rasmiy saytida ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)), shuningdek Adliya vazirligining [www.lex.uz](http://www.lex.uz) rasmiy saytida joylashtirilgan.

#### 4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Yakuniy ma'lumotlar hisobot yilidan keyin har yili may oyida tuziladi.

### 4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Agar dastlabki e'lon qilingan ma'lumotlar aniqlansa, keyingi nashrlarda aniq ma'lumot beriladi. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali tarqatiladi.

## 5. Qulayligi

### 5.1 Ma'lumotlar

#### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Ma'lumotlarni taqdim etish shakli foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos keladi (jadvallar, dinamik qatorlar, diagrammalar va boshqalar). Statistik nashrlarda jadvallar shaklida respublika, hudud, jins bo'yicha kadrlarning sifat tarkibi haqida ma'lumot beradi va qisqa uslubiy tushuntirishlar beradi.

Statistik ma'lumotlarni chop etish muddatlari har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan statistika dasturida aks ettiriladi.

#### 5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

##### 5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Kadrlar tarkibi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar bosma shaklda Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali tarqatiladi:

- "O'zbekistonda mehnat va bandlik"
- "O'zbekiston raqamlarda"
- "Yashash darajasi"
- "O'zbekiston Respublikasida ayollar va erkaklar" va boshqalar.

Bundan tashqari, xodimlar tarkibi va kasbiy ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarga so'rovlar bo'yicha taqdim etiladi.

##### 5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

##### 5.1.2.3 Bosma shaklda – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

##### 5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Mavjud emas.

##### 5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Davlat idoralari va boshqa foydalanuvchilarning maxsus so'rovlari uchun jadvallar.

#### 5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Mavjud emas.

#### 5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

Kadrlarning sifat tarkibi bo'yicha ko'rsatkichlar statistika dasturida belgilangan muddatlarga muvofiq e'lon qilinadi.

#### 5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

Yo'q.

#### 5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuniga, "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida" gi Nizomga va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarning talabiga binoan belgilangan tartibda taqdim etiladi. Statistik ma'lumotlarni tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosiga binoan bosma yoki elektron jadvallar ko'rinishida, statistik kompilyasiya, byulleten, tezkor ma'lumot, shuningdek tomonlar o'rtasida ma'lumot almashish to'g'risidagi bitimlar ko'rinishida amalga oshiriladi.

### 5.2 Metama'lumotlar

#### 5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

1-mehnat shakli (yillik) ("mehnat hisoboti") shakliga tushuntirishlar berilgan. Tushunchalar haqidagi ma'lumotlar tarqatilgan statistik to'plamlarda asosiy ko'rsatkichlarga uslubiy tushuntirishlar ko'rinishida aks ettirilgan.

### 5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

#### 5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi saytida (<http://stat.uz/uz>).

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Statistik hisobotlarning tarmoq shakllarida mehnat bo'yicha statistika hisobotining shakli takomillashtirildi, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishchilarning yoshi va ta'lim darajasi ko'rsatkichlari joriy etildi.

## **9.2 Umumiy**

### **9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli**

Yosh toifalari kesimida, shuningdek, jinsi bo'yicha ta'lim darajasi bo'yicha kadrlar sifat tarkibi ko'rsatkichlarining statistika hisobotlarida aks ettirilishi.

### **9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli**

Davlat statistika qo'mitasi bilan bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi o'rtasida xodimlar soni, ularning sifat tarkibi bo'yicha ma'lumotlar almashish ishlarini maxsus dasturiy ta'minot orqali yanada takomillashtirish.

## **9.3 Moliyaviy**

### **9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko'makka talab – Qisqa muddatli**

Moliyalashtirish statistika dasturi doirasida amalga oshiriladi.

### **9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko'makka talab – O'rta muddatli**

Moliyalashtirish statistika dasturi doirasida amalga oshiriladi.

### Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.Sh.:	Yuldoshev Zoir Toshkanovich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2028065
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	Sh.Abraev@stat.uz